

O'QUVCHILARDA EKOLOGIK TARBIYA ELEMENTLARINI SHAKLLANTIRISHDA TAQQOSLASH METODIDAN FOYDALANISH METODIKASI

F. U. Babakulova

Chirchiq davlat pedagogika universiteti Biologiya yo‘nalishi 2-bosqich talabasi

M. R. Asqarova

Chirchiq davlat pedagogika universiteti Biologiya kafedrasи o‘qituvchisi

askarovamiribon@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola o‘quvchilarda ekologik tarbiya elementlarini taqqoslash metodi yordamida samarali o`zlashtirish mumkinligi va ekologik tarbiyani qay jihatdan muhimligi haqida ma`lumot beradi.

Kalit so‘zlar: ekologik tarbiya, taqqoslash metodi, antropogen omil, biogen omil.

ABSTRACT

This article provides information on how students can effectively learn the elements of environmental education using the method of comparison and how important environmental education is.

Keywords: environmental education, comparison method, anthropogenic factor, biogenik factor

KIRISH

Ekologiya bu tirik organizmlar yashab turgan muhit va undagi omillardir majmuasidir. Ushbu maqolada ekologik muammolarni hal etishda taqqoslash usulidan foydalanish metodlari va ularning



samaradorligi haqida fikr yuritiladi. Biz bilamizki, pedagogik jihatdan biror ishni to`liq va samarali bajarilishi uchun o`sha vazifa inson ongiga singdirilgan bo`lishi zarur. Bu ishni uzoq yillar va davomli amalga oshirish uchun o`quvchilar ongiga ekologik tarbiya elementlari to`gri singdirilgan bo`lishi lozim [1]. Fan-texnika taraqqiyoti jadallashgan sari insonning atrof muhitga bo`lgan munosabatlari ham faollashib, u tabiat boyliklaridan ko`proq olishi va ularni insoniyat ehtiyojiga sarf qilishi kuchaygan sari, ming yillar davomida barqaror bo`lib kelgan ekologik muvozanat buzilib, inson va tabiat o`rtasidagi munosabat murakkablashib, tabiiy muhit falokat yoqasiga kelib qoldi. Insonning tabiiy boyliklardan haddan tashqari ortiqcha foydalanishi oqibatida sayyoramizning qiyofasi o`zgarib bormoqda [3].

MATERIAL VA METODIKA

Taqqoslash metodi - ta'lism tizimlari, pedagogik nazariya va amaliyotdagi umumiyligi va farqli jihatlarni, shuningdek, qonuniyatlar va tendensiyalarining namoyon bo`lishini aniqlaydi. Taqqoslash metodi ta'lism tizimlaridagi umumiylilik va o`ziga xoslikni, pedagogik nazariya va amaliyotning o`xshash va farqli tomonlarni, qonuniyatlar va tendensiyalarining universal va spestifik jihatlarini ajratish imkonini beradi. Misol uchun bu metodni ekologik tarbiya jihatidan ko`rib chiqadigan bo`lsak, ikki davlatning ekologik jihatdan holatini o`zaro solishtirishimiz mumkin. Aytaylik, Bangladesh va Shvetsariyani misol tariqasida olib ko`rsak. Bangladesh dunyodagi eng ifloslangan mamlakatlar reytingiga kiradi, chunki u juda jiddiy ifloslanish holatiga. Ruxsat etilgan darajalarga nisbatan havo sifati juda past **o`rtacha 97.10 ifloslanish** ko`rsatkichga ega. Ushbu ulush miqdori Bangladeshda yashovchi 166 milliondan ortiq aholining sanoat chiqindilari natijasida kelib chiqqan. So`nggi yillarda ushbu mamlakat sanoat sektori keskin o'sib bormoqda. Issiqxonalarining katta chiqindilarini keltirib chiqaradigan ko'plab fabrikalar, ayniqsa to'qimachilik sanoati ulushiga to`g`ri leladi.

TADQIQOT NATIJALARI

Eng tezkor natijasi nafas olish va yurak-qon tomir kasalliklarining ko'payishi. Mamlakat iqtisodiy jihatdan rivojlanayotgan bo'lsa-da, odamlar salomatligi to'g'risida uzoqroq istiqbolni ko'rish kerak. Shuning uchun atrof-muhitni muhofaza qilishning eng qat'iy siyosatini o'rnatish zarur.



1-rasm. Shvetsariyaning musaffo havoli hududlari.



2-rasm. Bangladesh havosining sanoat chiqindilari bilan ifloslanishi.

Shubhasiz, yetakchi va dunyodagi eng toza mamlakat bu – Shveysariya. Buni mamlakatga har yili va tozaligidan bahramand bo‘lish uchun eng ko‘p sayyoh tashrif buyurishi tasdiqlaydi. Ajablanarlisi, toza muhit sog‘lom va tinch hayotni ta’minlaydi va bu shveysariyaliklarning o‘rtacha umr ko‘rishlari davomiyligi bilan tasdiqlanadi.

Yuqoridagi misoldan ko`rinib turibdiki, ekologiyani qanday ahvolda saqlanishi bu biogen omillargagina emas antropogen omillarga ham o`zaro aloqador. Ekologik jihatdan tarbiyani to`g`ri shakllantirishda taqqoslash metodi eng samarali usuldir. Yuqorida ko‘rgan misolimiz singari ikki obyekni o‘zaro taqqoslash inson miyasida chuqur taasurot izini qoldiradi va ekologik tarbiya elementlarini tez va to‘gri shakllantishga imkon beradi. Bu esa pedagogik metod va pedagogning yutuqli tamoyili hisoblanadi.

Taqqoslash metodida yanada samarali natija olish maqsadida o‘quvchilarning ko‘z o‘ngida bo‘layotgan jarayonlar, voqealar, ma`lum hududlarni o‘zro taqqoslash ham mumkin. Misol uchun O‘zbekiston Respublikasidagi ekologik jihatdan eng toza Zomin va ekologik jihatdan eng ifloslangan Toshkent shahrini keltirish mumkin. Ularga ta`riflarni quyida ko`rib chiqamiz: Zomin bog‘i 1976 yilda tashkil etilgan bo‘lib, uning hududlari dengiz sathidan 1000-4030 metr balandlikkacha cho‘zilgan.



3-rasm.Zomin tumanining o‘ziga xos bo‘lgan ajoyib tabiatи.

Bu yerning o‘ziga xosligi – archalar bilan qoplangan o‘rmonlaridir. Davolanishga keluvchilarning aksari – allergik va nafas yo‘llarida kasalligi bo‘lgan bemorlar [5]. Havosining tozaligi, archazor o‘rmonlar, yangi qurilgan arqon yo‘li, sharshara, 700 yillik boboyong‘oq va o‘ziga xos tabiat manzaralari keluvchilarni o‘ziga rom etadi.

Bu yer O‘zbekiston bo‘yicha ekologik jihatdan eng toza hudud bo‘lganligi sababli “O‘zbekiston Shveytsariyasi – Zomin” degan atama bilan ham qo‘llaniladi. Bu yerning tub aholisi ham ekoligik jihatdan birmuncha sog`lomdir [5].

Toshkent shahri hozirgi kunga kelib, aholi sonining ortishi, ishlab chiqarish sarfining kengayishi, transport va texnikalarning soni va faoliyati oshib ketganligi sababli ekologik jihatdan yuqori darajadagi buzilish holatlari yuzaga kelgan. Bu borada statistic ma’lumotlarni keltirib o‘tadigan bo‘lsak, 07.11.2023 sanadagi holatga binoan, Toshkent shahri havoning iflosligi bo‘yicha IQAir reytingida Mumbay va Karachidan ham oldinga o‘tib, dunyoda 5- o`rinni egalladi [4].

Live city ranking

Cities with high air pollution (AQI)

#	MAJOR CITY	US AQI
1	Lahore, Pakistan	347
2	Delhi, India	342
3	Kolkata, India	222
4	Dhaka, Bangladesh	188
5	Tashkent, Uzbekistan	174
6	Mumbai, India	171
7	Karachi, Pakistan	166
8	Baghdad, Iraq	165
9	Ho Chi Minh City, Vietnam	151
10	Jakarta, Indonesia	151

07:00, Nov 07

Toshkent shahrining bu holatga kelishi sababi yuqorida aytilanidek, aholi sonining ortishi bilan bog'liq quyida bunga tegishli faktlarni ko'ramiz [4].



Bunday metodik misollardan foydalanishning asosiy sababi, inson ongi o'zi yashab turgan bir vaqtagi bo`lgan voqeа va hodisalarни oson eslab qoladi va buning pedagogika foydali jihatи shuki, atrofdagi jarayonlardan olingan xulosa orqali ekologik tarbiyani shakllantirish boshqa metodikalarga nisbatan samaraliroq natija ko`rsatadi [6].

XULOSA

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, ekologik tarbiyani har bir insonda bo`lishi va uni to`gri shakllantirilishi bu bizning kelajak avlod uchun qilgan eng buyuk xizmatimizdir.

REFERENCES

1. P.S.SULTONOV EKOLOGIYA VA ATROF-MUHITNI MUHOFAZA QILISH ASOSLARI «MUSIQA» nashriyoti Toshkent 2007
2. H.T. Tursunov, T.U. Raximov EKOLOGIYA Toshkent “NIF MSH” 2020

3. М. Asqarova "EKOLOGIK TA'LIM TARBIYANI OLIB BORILISHI: SINGAPUR TAJRIBASI" European Jornal of interdisciplinary Reseach and Development 9 2022.
4. Ахмадалиев, Б. Ж., Абдувалиев, Б. А., Қодирова, З. Н., Нугманова, К. И., Каримов, Р. А., & Зайлобидинов, Н. У. TOMATO MOSAIC TOBAMOVIRUS ИНФЕКЦИЯСИГА СПЕЦИФИК АНТИЗАРДОБ ОЛИШ ВА ТИТРИНИ АНИҚЛАШ. ЁШ ОЛИМЛАР АХБОРОТНОМАСИ.
5. Yakubjonova, S. T., Norbobojeva, T., & Saidmurotov, S. X. (2021). "O'SIMLIK LARNING HAYOTIY SHAKLLARI" MAVZUSINI O'QITISHDA HAMKORLIKDA O'QITISH TEKNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI. Academic research in educational sciences, 2(2), 1012-1017.
6. Норбобоева, Т., & Каримов, Г. (1978). Красильные растения–эдификаторы Узбекистана. Эколого-биологические особенности важнейших сырьевых растений в культуре. Ташкент, 139-148.
7. Zakirov PK, Norbobojeva T. Quantitative composition of dominant species of vegetation of Central Asia. InDoklady Akademii nauk UzSSR= 1974.
8. Рамазонов БР. Противоэрзационные меры борьбы на склоновых землях и предгорных районах, процессы дезертификации. Academic research in educational sciences. 2021;2(5):410-9.
9. Ramazonov BR. Plant world of the drained bottom of the Aral Sea. Current ecological state of the environment and scientific and practical aspects of rational nature management. InIII International Scientific and Practical Internet Conference/Compilation NA Shcherbakova/FSBSI" Caspian Research Institute of Arid Agriculture", p. Salty Loan.-2018. S 2018 (pp. 716-718).
10. Fayziev V, Kadirova Z, Chirkov S, Jurayeva U, Vakhabov A, Javlieva D. Study of some biological properties necrotic isolat of potato virus x and phylogenetic analysis. International Journal of Psychosocial Rehabilitation. 2020;24(9):455-62.

11. Fayziev VB. Kartoshka x virusi antigeni asosida turli immunologik usullar va ifa variantlari sezgirligini aniqlash. Academic research in educational sciences. 2021;2(1).
12. Zulkumor Shuxradovna Mirzayeva, & Voxid Baxromovich Fayziev (2021). O'QUVCHILARDA MUSTAQIL TA'LIMINI TASHKIL ETISH YO'LLARI. Academic research in educational sciences, 2 (5), 362-366. doi: 10.24411/2181-1385-2021-00899.
13. <https://azkurs.org/mavzu-pedagogika-fanining-ilmiy-tadqiqot-metodlari-rej-kirish.html?page=2>
14. <https://rost24.uz/oz/news/1045>
15. <https://yuz.uz/uz/news/dunyodagi-eng-toza-mamlakatlar-ontaligi>